TEXNOLOGIYA TA’LIMI FANIDA KASB-HUNARGA YO’LLASH DARSLASRINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MAZMUNI

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va texnologik ta’lim kafedrasi

v.v.b dotsenti: Fozilov Bexruz Qosimovich

Samarqand Davlat Pedagogika instituti

“Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Texnologik ta’lim)” yo’nalishi magistranti

Sayfiyeva Umida Akmalovna

Anotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi fanida kasb-hunarga yo’naltirish darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmuni, metodikalari va zamonaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Zamonaviy, Innovatsiya, texnologiya, darsning tuzilishi, axborot-kommunikatsiya, rivojlantirish, qiziqish, kasbiy samaradorlik, pedagog, individual.*

Аннотация: *В статье анализируются содержание, методы и современные возможности организации уроков профессиональной ориентации в сфере технологического образования в общеобразовательных школах на основе инновационных технологий.*

Ключевые слова: *современность, инновации, технологии, структура урока, информация и коммуникация, развитие, интерес, профессиональная эффективность, учитель, личность.*

Abstract: *This article analyzes the content, methods and modern possibilities of organizing vocational guidance lessons in technology education in general secondary schools based on innovative technologies.*

Keywords: *Modern, innovation, technology, lesson structure, information and communication, development, interest, professional effectiveness, teacher, individual.*

KIRISH

Bugungi kunda mustaqil fikr yurita oladigan va mustaqil harakat qila oladigan yosh avlodni tarbiyalash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham olimlar va ilg’or o’qituvchilar o’quvchilarda o’quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlantirish yo’llarini qunt bilan izlamoqdalar. Bular jamiyatni tarbiyalashning yangi tuzilmasini yaratishdan iborat umumiy jarayonning davomidir. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni xosil qilish, Shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondaShuvni talab etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Innovatsion texnologiya o’z mohiyatiga, ko’ra sub’ektiv xususiyatga ega, ya’ni, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o’z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar innovatsion texnologiyalar:

pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;

o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida o’zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

o’quvchilar tomonidan o’quv predmetlari bo’yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;

- o’quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishi;
- o’quvchilarning o’z imkoniyatlarini ro’yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;

pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g’oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Hozirgi kunda talim jarayonida interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha ananaviy talimda o’quvchi-o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chikarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va Shu bilan bir

qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Zamonaviy pedagogikada ta'lim berishning umumiy shakllari (jamoaviy, guruhli, yakka tartibda) va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari (dars, fan, texnika to'garaklari, o'quvchilar ilmmy uyushmalari, ekskursiyalar) farqlanadi.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibini doimiyligiga o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Darsning tarkibiy elementlari

Birinchi elementi - tashkiliy qism.

Ikkinchi elementi - uyga berilgan yozma vazifani tekshirish.

Uchinchi element - o'quvchilar bilimini og'zaki tekshirish (yoki so'rash).

To'rtinchi elementi - yangi materialni tuShuntirish.

Beshinchi element - uyga vazifa berish.

Oltinchi element - yangi materialni mustahkamlash.

Ettinchi element - darsni uyushqoqlik bilan yakunlash.

Darsning tuzilishi

An'anaviy dars tuzilishi: so'rash, tuShuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Zamonaviy dars tuzilishi didaktik asosiga mantiqiy psixologik tuzilish.

Zamonaviy dars tuzilishiga qo'shimcha motivlangan metodik didaktik tuzilishi:

1. Tayanch (avvalgi) bilimlarni va harakat usullarini faollashtirish.

2. Yangi tuShuncha va harakat usullarini shakllantirish.

3. Bilimlarni qo'llash, bilish va ko'nikmalarni shakllantirish (maxsus takrorlash va mustahkamlash).

Darsning mantiqiy-psixologik tuzilishi

1. Ma'lum bilimlarni tiklash va idrok etish.

2.O'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni anglash va tuShunish.

3. Bilim elementlari va harakat usullari umumlashtirish.

4. Bilimlar va yangi harakat usullarini namunadagidek hamda o'zgartirilgan sharoit vaziyatlarida qo'llay olish.

Darsda izlash faoliyat bosqichlari

1. Muammoli vaziyatni tashkil etish va muammoni qo'ya olish.

2. Taxminlar, farazlarni ilgari surish va ularni asoslash.

3. Farazlarni isbot etish.

4. Muammolarning to'g'ri hal etilganligini tekshirish.

5. Xulosalarni shakllantirish.

6. Bilimlarni notanish (nostandart) vaziyatlarda qo'llash.

Darsning motivlangan tuzilishi

1. O’quvchilarning diqqatini tashkil etish va boshqarish.

2. Faoliyat mazmunini sharhlash (izohlash).

3. Motivlangan holatlarni aktuallashtirish.

4. O’quvchilar bilan hamkorlikda darsning maqsadini belgilash.

5. Maqsadga erishishda yutuqli vaziyatlarni vujudga keltirish.

6. O’quvchilarning harakatlarida ijobiy his-tuyg’u va o’ziga ishonchni qo’llab-quvvatlash.

O’quv faoliyati tuzilishi

O’quv faoliyati: talab, motiv, o’quv harakatlari, o’zini-o’zi nazorat, o’zini-o’zi baholash.

Ta’lim muassasalaridagi o’qitish jarayonining shakl va metodlarini tashkil qilishning ko’pqirrali yagona tizimi ramkasida amalga oshiriladi. O’qitishning shakl va metodlari yig’indisi o’quv jarayonining ob’ektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi.

Ta’lim muassasasidagi o’qitishning shakl va metodlari tasnifi o’zaro bog’langan va o’zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o’quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo’yicha o’qituvchilarning faoliyati;
- o’quvchilar o’quv va bilish faoliyati;

Zamonaviy o’qitish texnologiyalari-majmuaviy integrativ tizimlar bo’lib, ular o’zida ta’lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy ko’nikma, malakalar va

shaxs xislatlarini o’rganuvchilar tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan operasiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to’plamini aks ettiradi. Bu o’rinda ta’lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqishga tatbiq etish (nima?), ta’lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta’lim metodi va vositalarini belgilanish (nimalar yordamida?), Shuningdek, o’qituvchilar malaka darajasi (kim?) hamda erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo’l bilan?) ga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo’llanilishi o’quv jarayoni mohiyati va uning texnologiyasini belgilab beradi.

Innovasiya (inglizcha Innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik, uzgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan intraktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Intraktiv metodlar bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedogik ta’sir etish usullari bo’lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ya’ni pedagog va o’qituvchi-o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orkali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni bir qator xususiyatlarga ega:

- o’quvchi-o’quvchining dars davomida befarq bo’lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o’quv jarayonida bilimga bo’lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo’lishini ta’minlaydi;
- o’quvchi-o’quvchining bilimga bo’lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan xolda kuchaytirish;
- pedagog va o’quvchi-o’quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish;

Innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishning afzalliklari:

— O’qituvchilarga dars mashg’ulotlarini ko’p qirrali o’tish imkoniyatini beradi;

— O’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini oshiradi;

— Kasbiy va texnik ko’nikmalarni tezroq va samarali o’rganish imkoniyatini beradi;

— Ta’limning sifatini oshiradi;

— Zamonga mos zamonaviy kadrlarni tayyorlashda muhim vazifani bajaradi.

XULOSA

Demakki, kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlangan insonnning o’zini baxtiyor his qilishi g’oyasining mazmun-mohiyati yoshlar tomonidan to’liq anglanilmaganligi aniqlandi. Umuman yoshlarni kasbga yo’llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, qobiliyatlarini hisobga olish va psixologik savodxonligini oshirish, ularning kasbhunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo’yiladigan psixografik, professiogrammali talablarga moslashishga imkon beradi. Yoshlarni o’z vaqtida individualligi asosida to’g’ri kasb tanlashlari ta’minlansa, ularda hayotning mazmuni anglanadi va sohaning bardavomligi asoslanadi. Bu esa hayotning sifatini oshirib, jamiyatimizning ertangi kuniga ishonch tuyg’usini shakllantiradi. Yoshlarimizni kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlanib yashashlari uchun bugundanoq har birimiz o’z salohiyatimizdan kelib chiqib to’g’ri yo’naltirishimiz lozim, zero ular tanlagan yo’lining to’g’riligiga ishonch hosil qilishsin va o’z hayotlaridan mamnun bo’lishsin. O’zining “Men” idan qanoatlangan shaxsning har tomonlama imkoniyatlari kengayib, kasbiy kamolotda va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatlarga erishishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasbhunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)

2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma.T.2003 yil.

3. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.

4. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150- 2153.

5. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.

6. Abdullayeva R.M. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ijtimoiy voqelik sifatida. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 11 | Nov - 2022 ISSN: 2181-2608. 436-438 b. www.sciencebox.uz.

7. Кушаков, Ф. А. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. World scientific research journal, 4(2), 74-80.

8. Файзулла Абдуллаевич Кушаков (2022). ТЕХНИКАНИНГ ФАЛСАФИЙ

МУАММОЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 365-371.

9. Кушаков, Файзулла Абдуллаевич (2022). ТЕХНОЛОГИЯ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЛМИЙ – НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 875-880.

10. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 606- 612.